

# **“Finalga yo‘l!” promo-aksiyasi qoidalari**

## **1. Umumiy qoidalar**

1.1 Mazkur qoidalar “Finalga yo‘l!” promo-aksiyasining o‘tkazilish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilab beradi.

1.2 Tashkilotchi: «BBK Tashkent Limited» MCHJ

1.3 Aksiyaning o‘tkazilish muddati: 2022-yilning 1-avgustidan 30-sentyabriga qadar (30-sentyabr kuni ham).

## **2. Aksiyada ishtirok etish tartibi**

2.1 Aksiyada O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan, 2022-yilning 1-avgustidan 30 sentyabriga qadar vivo savdo belgisining smartfon(lar)ini (V23, V23e, V21, V21e, Y53s, Y33s modellarini) xarid qilgan mehnatga layoqatli fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.

2.2 Aksiya ishtirokchisiga (keyingi o‘rinlarda – “Ishtirokchi” deb yuritiladi) aylanish uchun: vivo savdo belgisining smartfon(lar)ini (V23, V23e, V21, V21e, Y53s, Y33s modeldagarini) hamkor do‘konlardan 2022-yilning 1-avgustidan 30-sentyabriga qadar sotib olish;

2.3 Smartfonni faollashtirish;

2.4 <https://uzvivo.gzwindflag.com/#/> veb-saytida (keyingi o‘rinlarda – “veb-sayt” deb yuritiladi) ism, bog‘lanish uchun ma‘lumotlar va mobil qurilma identifikator raqamini (IMEI1) ko‘rsatgan holda ro‘yxatdan o‘tish kerak.

2.5 Veb-saytda ro‘yxatdan o‘tganingizdan keyin siz Ishtirokchiga aylanasiz va Sovrinlardan birini yutib olish imkonini qo‘lga kiritasiz.

2.6 Ishtirokchi veb-saytda 2022-yilning 1-avgustidan to 30-sentyabriga qadar (30-sentyabr kuni ham) ro‘yxatdan o‘tishi lozim.

2.7 Ishtirokchi veb-saytda ro‘yxatdan o‘tar ekan, Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega ekanini tasdiqlaydi va bu mazkur Qoidalar bilan tanishib chiqqani va ularga rozi ekanini anglatadi.

2.8 Bir nechta smartfon xarid qilgan taqdirda Ishtirokchi veb-saytda har bir smartfoni uchun alohida ro‘yxatdan o‘tadi. Bir ishtirokchi 2 martadan ortiq ro‘yxatdan o‘tishi mumkin emas.

2.9 Aksiyada seriya raqami hududiy jihatdan rasman O‘zbekistonga taalluqli bo‘lgan smartfonlargina ishtirok etadi.

2.10 Xaridorlar lotereyada faqat bir martagina qatnashishlari mumkin. Lotereya o‘tkaziladigan aniq sana va sovrinlar ro‘yxati smartfon xarid qilingan do‘konga bog‘liq bo‘ladi.

## **3. Sovrin jamg‘armasi**

3.1 Bosh sovrin – Qatarda o‘tkaziluvchi FIFA 2022™ ga sayyoxlik safari (8 ta paket).

Paketga nimalar kiradi:

- Toshkent sh.-Doha sh.-Toshkent sh. yo‘nalishi bo‘ylab samolyot iqtisodiy klassiga chiptalar

- Doha shahrida aeroportdan/gacha transfer

- Mehmonxonada 3 kun tunash
- Mehmonxonada har kuni nonushta
- Qatardagi FIFA 2022™ futbol bo‘yicha jahon chempionati matchiga tashrif buyurish
- Qatardagi FIFA 2022™ matchlariga/dan rejalashtirilgan tadbirlarga transport
- G‘oliblar uchun maxsus sovg‘a

3.2 Mazkur aksiya yakuniga ko‘ra sovrin(lar)ni qabul qilib olish jarayonida barcha tegishli soliqlar va majburiy to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va qonunchiligida ko‘rsatilgan tartibda aksiya G‘olibi tomonidan davlat byudjetiga to‘lanadi. G‘oliblar sovrinning alishtirib berilishini, bosh yoki suvenir sovrinining qiymatini pulda to‘lanishini, sovg‘ani qiymatidagi farqqa qarab qo‘shimcha pul to‘lash yoki pul qaytarib berilishi hisobiga qimmatrog‘i yoki arzonrog‘iga alishtirib berilishini talab qilish huquqiga ega emaslar.

#### **4. Promo-aksiyaning o‘tkazilish tartibi va sovrinlar o‘ynalish jarayoni**

4.1 Mazkur Aksiya bo‘yicha sovrinlar o‘yini g‘olibi youtogift.com maxsus sayti yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o‘xshash boshqa dasturlar yordamida aniqlanadi.

4.2 Sovrinlar 2022-yilning 10-oktyabr sanasida Tashkilotchi tomonidan Instagramdagi vivo\_uzbekistan rasmiy sahifasida jonli efirda o‘ynaladi. Sovrinlar o‘yini jami 5-marta o‘tkaziladi:

1) Mediapark do‘konlaridan 2022-yilning 1-avgustidan 30-sentyabriga qadar (30-sentyabr kuni ham) smartfon xarid qilgan va uni veb-saytda ro‘yxatdan o‘tkazgan ishtirokchilar o‘rtasida;

2) Texnomart do‘konlaridan 2022-yilning 1-avgustidan 30-sentyabriga qadar (30-sentyabr kuni ham) smartfon xarid qilgan va uni veb-saytda ro‘yxatdan o‘tkazgan ishtirokchilar o‘rtasida;

3) Elmakon, Idea va Radius do‘konlaridan 2022-yilning 1-avgustidan 30-sentyabriga qadar (30-sentyabr kuni ham) smartfon xarid qilgan va uni veb-saytda ro‘yxatdan o‘tkazgan ishtirokchilar o‘rtasida;

4) Zoodmall platformasi orqali onlayn do‘konlardan 2022-yilning 1-avgustidan 30-sentyabriga qadar (30-sentyabr kuni ham) smartfon xarid qilgan va uni veb-saytda ro‘yxatdan o‘tkazgan ishtirokchilar o‘rtasida;

5) Bozorlardagi elektronika do‘konlaridan 2022-yilning 1-avgustidan 30-sentyabriga qadar (30-sentyabr kuni ham) smartfon xarid qilgan va uni veb-saytda ro‘yxatdan o‘tkazgan ishtirokchilar o‘rtasida.

O‘yinning o‘tkazilish payti qo‘shimcha tarzda veb-saytga va Instagramdagi rasmiy sahifaga e’lon joylash orqali ma’lum qilinadi.

4.3 Aksiyada ishtirok etishning o‘zi Ishtirokchilar ismlari, familiyalari, fotosuratlar va ular haqidagi boshqa ma’lumotlar Tashkilotchi tomonidan ularga

biror haq to'lanmagan holda reklama maqsadlarida foydalanilishiga rozilik berganlarini anglatadi.

4.4 Tashkilotchi [www.vivo.com/uz](http://www.vivo.com/uz) saytida o'zgarishlar haqida oldindan e'lon bergan holda mazkur Qoidalarga o'z xohishiga ko'ra istalgan o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritishga haqli. Tashkilotchi sovrinlar miqdori va ro'yxatini kengaytirish, shuningdek sovrinlar o'yinining muddatini o'zgartirish huquqiga ega. Tashkilotchi Ishtirokchida Aksiyadagi ishtiroki bois yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotish va zararlar hamda istalgan turdagi sarf-harajatlarni to'lab, o'rnini to'ldirib bermaydi.

4.5 Tashkilotchi sovrindan foydalanish muddatida sovrin egasining sog'lig'iga (hayotiga), shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulki, sog'lig'i yoki hayotiga yetgan ziyon uchun javobgar emas.

4.6 Mazkur promo-aksiyani o'tkazish chog'i yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha bahsli va ixtilofli vaziyatlar Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hamjihatlikda hal qilinadi. O'zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda bahsli vaziyat sud tartibida ko'rib chiqiladi.

4.7 G'olib sovrindan voz kechgan va/yoki sovrinni o'z muddatida olib ketmagan taqdirda Komissiya qaroriga ko'ra Muqobil ravishda g'oliblar aniqlanadi.

4.8 G'oliblar haqidagi ma'lumot Tashkilotchining rasmiy korporativ veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

4.9 Tashkilotchi aksiya g'oliblariga SMS-xabarnoma jo'natadi yoki ro'yxatdan o'tish chog'i ko'rsatilgan telefon raqami orqali ular bilan bog'lanadi.

4.10 Ishtirokchi tomonidan Aksiya shartlariga rioya qilinmagani oqibatida yuzaga kelgan holatlar uchun Tashkilotchi javobgar emas.

## **5. Sovrinlarni topshirish tartibi va muddatlari**

5.1 Sovrinlar G'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar (pasport, harbiylar uchun harbiy bilet) taqdim qilinib, barcha ma'lumotlar mos kelgan taqdirda topshiriladi.

5.2 G'olib sovrinni yutganligi haqida Tashkilotchi tomonidan xabardor qilingan sanadan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kuni davomida O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqlar va zarur to'lovlarni to'lagan holda sovrinni qabul qilib olish majburiyatini zimmasiga oladi.

5.3 Tashkilotchi G'olibga bosh sovrinni yutganligi haqida xabar berar ekan, bu sovrinni qabul qilib olish muddatini ko'rsatadi va sovrinni bu muddatda olib ketmaslikning oqibatlari haqida ma'lum qiladi. Agar G'olib uzrli sabablarga ko'ra sovrinni Tashkilotchi tomonidan ko'rsatilgan muddatda olib keta olmasa, sovg'ani qabul qilib olishi mumkin bo'lgan boshqa bir sanani ma'lum qilishi darkor, biroq bu muddat G'olibga sovrinni yutganligi haqida xabar berilgan sanadan boshlab 20 (yigirma) kalendar kunidan oshib ketmasligi darkor.

5.4 G'olibga sovrin G'olib hamda Tashkilotchining vakili tomonidan imzo qo'yiluvchi Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida topshiriladi.

5.5 Aksiya Tashkilotchisining Ishtirokchiga sovrinni topshirish majburiyati sovg'a topshirilib Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan so'ng bajarilgan hisoblanadi.

5.6 Sovrin topshirilgan ondan boshlab sovringa egalik qilish huquqi G'olibga o'tadi.

5.7 Aksiya sovrinlarini qabul qilib olish munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa barcha yig'imlar, xususan davlat byudjetiga to'lanuvchi boj, soliqlar va majburiy to'lovlar, shuningdek boshqa sarf-harajat va chiqimlar Ishtirokchilar tomonidan to'lanilishi darkor.

5.8 Sovrinlarning topshirilishi jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari jalb qilingan tantanali ommaviy tadbir sifatida o'tkazilishi mumkin.

5.9 Sovrinlardan foydalanish oqibatida sovrin egalarining sog'lig'iga (hayotiga), shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulki, sog'lig'i yoki hayotiga yetgan har qanday ziyon uchun Tashkilotchi javobgar emas.

## **6. Aksiyaning o'tkazilish shartlari, aksiyaning vaqtincha to'xtatib turilishi yoki vaqtdan avval tugatilishi haqida aksiya ishtirokchilarini xabardor qilish tartibi.**

6.1 Mazkur promo-aksiya haqidagi batafsil ma'lumot hamda aksiya Qoidalari [www.vivo.com/uz](http://www.vivo.com/uz) rasmiy veb-saytining "Matbuot Markazi" bo'limiga joylanadi.

6.2 Promo-aksiya haqidagi batafsil ma'lumotni (+998 55) 503-20-20 telefon raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda ham olish mumkin.

6.3 Aksiya muddatidan avval tugatilgan, o'tkazish muddatlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, bu haqidagi ma'lumot [www.vivo.com/uz](http://www.vivo.com/uz) saytining "Matbuot Markazi" bo'limiga joylanadi.